

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Davlat test markazining Test sinovlarining kompyuter  
tahlili va axborotlashtirish boshqarmasi to‘g‘risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining Test sinovlarining kompyuter tahlili va axborotlashtirish boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda Boshqarma deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 fevraldagi 130-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining tuzilmasiga kiradi.

2. Boshqarmaning faoliyati test sinovlarida ishlatiladigan javoblar varaqalariga ishlov berish, tekshirish, test natijalarini hisoblash, test natijalarini turli xil kesimlarda tahlili etish, test natijalarini Davlat test markazi rasmiy veb-saytida e‘lon qilish va test sinovlari jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

3. Boshqarma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Davlat test markazi buyruqlari, Davlat test markazi hay‘ati qarorlari, ”O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi to‘g‘risida Nizom”, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Davlat test markazi tuzilmasiga muvofiq, Boshqarma o‘z vakolati doirasidagi masalalar yuzasidan, tashkiliy va ijro intizomiga oid masalalar bo‘yicha Davlat test markazi direktori va direktor o‘rinbosariga bo‘ysunadi va hisobot beradi.

5. Boshqarma o‘z faoliyatini Davlat test markazining bo‘lim va boshqarmalari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

**2-bob. Boshqarmaning vazifa va funksiyalari**

6. Quyidagilar boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:  
test sinovlarining natijalarini hisoblash, tahlil etish va e‘lon qilish;  
test tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanishini tashkil etish.

7. Boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi fuksiya-larni amalga oshiradi:

**1) Test sinovlarining natijalarini hisoblash, tahlil etish va e'lon qilish sohasida:**

test sinovlarida ishlatiladigan javoblar varaqalariga ishlov berish, tekshirish; manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda test sinovlari natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish va takliflar tayyorlash;

test sinovi natijalarini hisoblash, tahlil qilish;

test sinovi natijalarini Davlat test markazining rasmiy veb-sayti va oliy ta'lim muassasalarida e'lon qilish;

rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida test sinov-larining natijalarini hisoblash texnologiyasini takomillashtirish.

**2) Test tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanishini tashkil etish sohasida:**

test tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish va monitoringini olib borish;

Davlat test markazining faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish maqsadida ilg'or xorijiy axborot texnologiyalarini o'rganish va tadbiq etish.

Boshqarma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

**3-bob. Boshqarmaning huquq va majburiyatlari**

8. Boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalar va fuksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun Davlat test markazi bo'limlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan zarur axborotni belgilangan tartibda so'rash va olish;

Boshqarma vazifalari doirasida Respublika va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

Davlat test markazi faoliyatini keng yoritish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy veb-saytlar, shuningdek sahifalar yaratish;

o'z vakolatlari doirasida konferensiya, seminarlar, simpoziumlar, ko'rgazmalar o'tkazish, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan Boshqarma faoliyatiga doir tadbirlarda ishtirok etish;

test sinovi natijalari tahlili asosida metodik materiallar va tavsiyalar ishlab chiqish;

Boshqarma axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va qo'llash bo'yicha Davlat test markazining hay'at yig'ilishlariga masalalar kiritish;

Boshqarma faoliyatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha Davlat test markazi xodimlari, boshqa tashkilot va muassasa vakillari bilan ishchi yig'ilishlar o'tkazish;

o'rnatilgan tartibda konsultativ va ekspert tadbirlarni o'tkazish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish monitoringini amalga oshirish bo'yicha mutaxassislarini jalb etish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqa masalalar bo'yicha elektron materiallar, internet va elektron pochta xizmatidan foydalanish;

xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalari, markazlari va tuzilmalari bilan masofadan o'qitish, yangi axborot texnologiyalari bo'yicha ijodiy aloqalar o'rnatish.

9. Boshqarma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

10. Quyidagilar Boshqarmaning majburiyatlari hisoblanadi

Boshqarmaga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini test jarayoniga joriy etish va ulardan samarali foydalanish monitoringini o'z vaqtida va sifatli tashkil etish;

test sinovi natijalarini hisoblashning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlash sohasida dasturlar, chora-tadbirlar rejasi va boshqa dasturiy hujjatlarni samarali amalga oshirish.

Boshqarma faoliyati yuzasidan Davlat test markazi rahbariyatiga hisobot berish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 fevraldagi 12-sonli «Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq mehnat ijro intizomiga rioya etish.

#### **4-bob. Boshqarma tuzilmasi va uning faoliyati tashkil etilishi**

11. Boshqama tuzilmasiga Test sinovi natijalari tahlili bo'limi va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'limlari kiradi.

12. Boshqarmaga «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi to'g'risida Nizom»da belgilangan tartibga asosan Davlat test markazi direktor buyrug'i asosida tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi.

13. Boshqarma boshlig'i «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi to'g'risida Nizom» va ushbu Nizomga asosan boshqarma faoliyatini tashkil etadi va boshqaradi.

14. Boshqarma va boshqarma boshlig'ining ish rejasi Davlat test markazi direktori tomonidan tasdiqlanadi. Boshqarma xodimlarining ish rejalari Davlat test markazi rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

15. Boshqarma shtatlari Davlat test markazi tuzilmasidagi cheklangan soni bo'yicha shakllantiriladi.

### **5-bob. Yakunlovchi qoida**

16. Boshqarmani qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.